



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail:
namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:06-12-2021 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 26604

Obyekt nomi «Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani "Mustaqillik" MFY aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash»

Buyurtmachi - "Suv ta'minoti va oqava suv obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" UK Namangan viloyati hududiy boshqarmasi

Bosh loyihachi - "O'zbekkommunalloyihaqurilish" DUK

Litsenziya AL-000324 2.11.2019 yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi "Suv ta'minoti va oqava suv tizimini rivojlantirish jamg'armasi" hisobidan

Bosh pudratchi - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 21 apreldagi 230-sonli qaroriga asosan - "Yangi avlod qurilish invest" MCHJ

Qurilish turi Yangi qurilish

Murojaat raqami: № 25328

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2.04.2021 yildagi PQ-5048-sonli qarori.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.04.2021 yildagi 230-sonli qarori.

1.3. Uchqo'rg'on tumani hokimining 23.09.2020 yildagi 692-sonli qarori.

1.4. O'zbekiston Respublikasi "O'zsvu'ta'minot" AJ tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi hamda buyurtmachi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.5. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 28.09.2021 yildagi 1714-1714234-29030-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.6. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari va muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi manfaatdor tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan materiallar.

1.7. "O'ZGASHKLITI" DUK Namangan filiali tomonidan 2021 yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.

1.8. Namangan gidrogeologiya stansiyasi tomonidan 2020 yilda bajarilgan xo'jalik-ichimlik ta'minoti imkoniyati to'g'risida gidrogeologik xulosa.

1.9. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 2021 yildagi 09-2021-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Yordamchi loyihachi "CITY PROJEKT-S" MChJ tomonidan ishlab chiqilgan "Ishchi loyiha"ning ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Tashqi suv tarmog'i. Umumiy ma'lumotlar, suv tarmog'ining rejasi, bo'ylama kesim, tugunlar va quduqlar, jixoz va uskunalarga bo'lgan ehtiyoj jadvali.
- Bakteritsid binosi. Arxitektura va qurilish, isitish, elektr yoritish va texnologik qismlari.
- 25 m³ suv minora. Arxitektura va qurilish qismi.
- Tashqi qo'rg'on devor. Arxitektura va qurilish qismi.
- Suv olish inshooti bosh reja va tashqi muhandislik tarmoqlari.
- "Geolkontrakt" ishlab chiqarish tijorat korxonasi tomonidan 2020 yilda ishlab chiqilgan tik quduq loyihasi.
- Smeta hujjatlari.

2.2. Buyurtmachi bilan kelishilgan va pudratchi tomonidan tasdiqlangan qurilish materiallari va jixozlari narxlari o'zaro kelishuv bayonnomasi.

2.3. Buyurtmachining 20.08.2021 yildagi 307-sonli va 26.08.2021 yildagi 318-sonli xatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Loyihalanayotgan suv tarmog'i Uchqo'rg'on tumani "Mustaqillik" MFY hududida joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshlilik bo'yicha - 8 ball. Tashqi havo harorati - 14°s. Me'yoriy qor yuklamasi - 0,50 kPa, shamol yuklamasi - 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida suglinok (qatlam qalinligi 2,2 metrgacha), 1-qatlamida suglinok va supes (qatlam qalinligi 5,3 metrgacha) asos bo'lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo'yicha toifasi - II. Cho'kuvchanligi bo'yicha 1-guruh tuproq turiga to'g'ri keladi. Yer osti suvlari yer satxidan 2,8 metrda aniqlangan. Yerni tuzilish reliefi - tekis.

3.2. Bosh reja.

Yangi suv olish inshootining 700 m² hududida joylashgan: loyihalanayotgan tik quduq, bakteritsid binosi, 25 m³ suv minorasi va tashqi qo'rg'on devor. Hudud obodonlashtiriladi.

3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Suv tarmog'i.

Loyihalanayotgan suv tarmog'i polietilen va po'lat quvurlardan iborat bo'lib, umumiy uzunligi - 7406 metr, shu jumladan: polietilen quvurlar Ø110 mm - 1010 metr, Ø90mm - 1030 metr, Ø75mm - 690 metr, Ø63mm - 1115 metr, Ø50mm - 3476 metr va po'lat quvurlar Ø104 mm - 75metr, Ø57mm - 10 metr. Tarmoqda temir-beton quduqlar ko'zda tutilgan. Suv tarmog'ida quvurlarni avtomobil yo'lidan kesib o'tishi uchun po'lat quvurdan g'illoflar ko'zda tutilgan. Loyihalanayotgan suv tarmog'i Uchqo'rg'on tumani "Mustaqillik" MFY aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlaydi.

2. Bakteritsid binosi (yangi qurilish).

Bino - 1 qavatli, yerto'lasiz, pishiq g'ishtdan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-B" va "1-2" o'qlari bo'yicha 3,0mx4,8m.ni tashkil etadi, xona balandligi - 2,7 m.

3. Tashqi qo'rg'on devor (yangi qurilish).

Loyihada umumiy uzunligi 40 metr va balandligi 2,5 metr bo'lgan shlakoblok devor qurish hamda metall darvozalar o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Tik quduq.

Quduq konstruksiyasi gidrogeologik sharoitlar va o'rnatiladigan jixozlar turiga qarab belgilangan. Yer osti suv satxining xolati va ularning yil davomida o'zgarib turishini hisobga olgan holda quduq suv osti nasos bilan jixozlangan. Nasos quduqqa D-76 mm.li uzunligi 55 metr bo'lgan suv ko'taruvchi po'lat quvurda tushiriladi. Quduq 60 metr chuqurlikkacha Ø219 mm ishchi kolonna bilan, qolgan qismi quduq tubigacha Ø114 mm ishchi kolonna bilan jixozlanadi. Quduqning chuqurligi – 110 metr, filtrning uzunligi – 25 metr, tindirgichning uzunligi – 10 metrni tashkil etadi. Burg'ulash qurilmasi diametri – 295 mm va 190 mm.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. *Suv ta'minoti* – “Namangan suv ta'minoti” MChJ Uchqo'rg'on tumani bo'limining 5.10.2021 yildagi 232-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib yangi tik quduq qabul qilingan.

4.2. *Elektr ta'minoti* –Uchqo'rg'on tumani ETKning 9.12.2021 yildagi 196-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 110/10 kVli “To'qimachi”dan chiqqan 10 kVli “Yoshlik” elektr uzatish tarmog'ining yaqin tayanchi qabul qilingan. Loyihada KTPs-25/10/0,4 kv, AIIKUE tizimi o'rnatish hamda hududni tashqi elektr yoritish tizimi qurish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Bosh reja Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi, Uchqo'rg'on tumani qurilish bo'limi, “Namangan suv ta'minoti” MChJ Uchqo'rg'on tumani bo'limi, Namangan GGS va “Mustaqillik” MFY bilan kelishilgan.

- Uchqo'rg'on tumani SEO va JSBning 5.10.2021 yildagi 33-sonli xulosasi (148-shakl).

- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 23.11.2021 yildagi 01-19/08-1172-sonli xulosasi.

- Tashqi elektr uzatish trassa rejasi Uchqo'rg'on tumani ETK bilan kelishilgan.

- Buyurtmachining loyihani ko'rib chiqish bo'yicha 3.12.2021 yildagi 19-sonli yig'ilish bayoni.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarining izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

6.1.1. Loyiha topshirig'ida bosh loyihachi va yordamchi loyihachi – ko'rsatildi.

6.1.2. Bakteritsid binosi chizmasida devor rejasi – o'zgartirildi.

6.1.3. Ishchi loyihaga Uchqo'rg'on tumani SEO va JSBning 248-shakldagi xulosasi – taqdim qilindi.

6.1.4. Tasdiqlangan topotasvir hujjatlari – taqdim qilindi.

Suv inshooti (quduq).

6.1.5. Yangi suv qudug'ini qazish o'rni Namangan Hidrogeologik stansiyasi bilan – kelishildi.

Tarmoq rejasi.

6.1.6. ShNQ2.07.01-03ning 56-jadvaliga muvofiq suv tarmog'idan mavjud binolargacha bo'lgan oraliq masofalar – ko'rsatildi.

6.1.7. Tarmoq rejasida QMQ 2.04.04-97ning 3.10 bandiga muvofiq plastmassa quvur avtomobil yo'li bilan

kesishgan joyda po'lat g'iloflar – ko'zda tutildi.

6.1.8. Tarmoq rejasida asfalt qoplamaning buziladigan qismlari – ko'rsatildi.

6.1.9. QMQ 2.04.02-19ning 8.9 bandiga muvofiq yuvilgan suvlarni tarmoqdan chiqarib tashlash yechimlari – ko'rsatildi.

6.1.10. Jixoz va uskunalar ehtiyoji jadvali – taqdim etildi.

Xonadonlarni tarmoqqa ulanishi.

6.1.11. Loyiha topshirig'ida tarmoq olib kirilishi lozim bo'lgan xonadonlar soni – aniq belgilandi.

Elektr qismi.

6.1.12. Tashqi elektr ta'minoti uchun tushuntiruv yozuvi – taqdim etildi.

6.1.13. Tashqi elektr uzatish trassa rejasida Uchqo'rg'on tumani ETK bilan – kelishildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) va buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan loyiha qiymati **2415545,310 ming so'm** qilib belgilandi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari:	1799560,860	ming so'm
Asbob-uskunalar:	207840,300	ming so'm
QQS:	301110,170	ming so'm
Buyurtmachining boshqa xarajatlari:	107033,980	ming so'm

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani "Mustaqillik" MFY aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Izoh: Yer qazish ishlarini boshlashdan avval, zaruratga ko'ra muhandislik tarmoqlaridan foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar hamda yo'l korxonasi vakillari ishtirokini ta'minlash lozim.

Bosh mutaxassis: Jalilov Shokirjon Zokirjonovich